



KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN QO'LLANILADIGAN AUTENTIK MATNLARNING VALIDLIK AHAMIYATI

Turg'unboyev Muhammadbobur Faxriddin o'g'li

Namangan chet tillati instituti o'qituvchisi

Email: boburteacher99@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda kasbiy ta'lim va malaka oshirishda ishlatiladigan darsliklar, trening modullari, vebinar materiallari va kopdan ko'p qo'llanishga urg'u berilayotgan autentik matnlar haqiqatan ham kerakli kasbiy kompetensiyalarni rivojlantira oladimi va ularning mazmuni, murakkabligi va amaliyotga mosligi (validligi) yetarlimi kabi masalalar ta'lim muassasalarida tez tez ko'tarilmoqda. Chunki ushbu mavzu xalqaro mavzuda yaxshi o'rganilgan bo'lsada, lekin o'zbekiston amaliyotiga moslashtrish uchun yangi tadqiqotlar zarur. Ushbu maqolada aynan kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan autentik matnlarning validligini tekshirish maqsadi, vazifalari, usullari va natijalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, autentik matnlar, validlik, validlik tekshiruvi, validlik darajasi

ЗНАЧЕНИЕ ВАЛИДНОСТИ АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Тургунбоев Мухаммадбобур Фахриддин угли

Преподаватель Намангандского института иностранных языков

Email: boburteacher99@gmail.com



Аннотация: В настоящее время в профессиональном образовании и повышении квалификации активно используются учебники, учебные модули, материалы вебинаров и множество аутентичных текстов. Действительно ли они могут развить необходимые профессиональные компетенции и достаточно ли их содержание, сложность и соответствие практике (валидность) — эти вопросы часто поднимаются в образовательных учреждениях. Хотя данная тема хорошо изучена на международном уровне, для адаптации к узбекской практике необходимы новые исследования. В данной статье рассматриваются цель, задачи, методы и результаты проверки валидности аутентичных текстов, используемых для развития профессиональной компетентности.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, аутентичные тексты, валидность, проверка валидности, уровень валидности.

THE SIGNIFICANCE OF VALIDITY OF AUTHENTIC TEXTS USED FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE

Turg'unboyev Muhammadbobur Faxriddin o'g'li

Teacher at Namangan Institute of Foreign Languages

Email: boburteacher99@gmail.com

Annotation: Nowadays, textbooks, training modules, webinar materials, and numerous authentic texts are actively used in vocational education and skills enhancement. Do they truly develop the necessary professional competencies, and is their content, complexity, and practical relevance (validity) sufficient? These issues are frequently raised in educational institutions. Although this topic has been well-studied internationally, new research is necessary to adapt it to Uzbekistan's



practices. This article discusses the aims, tasks, methods, and results of checking the validity of authentic texts used for developing professional competence.

Key words: *professional competence, authentic texts, validity, validity check, validity level.*

Kirish

Ta'lim muassasalarida ishlatilayotgan o'quv materiallarini validlik darajasi birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Ayniqsa kabsiy kompetensiyani rivojlantirishda autentik matnlardan keng foydalanishga berilayotgan urg'u ta'limni ya'ni o'quv jarayonini ham qiziqarli ham samarali bo'lishi uchun xizmat qilishi ta'kidmoqda. Ammo har doim ham autentik materiallarning sifatli bo'lishi va kerakli kompetensiyani rivojlantirish qobiliyati bir xil emasligi ham uchray turibdi. Shu tufayli o'quv materiallarini validlik tekshiruv masalasi nafaqat global miqyosda balki O'zbekistonda ham keng ko'tarilmoqda. Chunki autentik matnlarning validligini tekshirish bu investitsiya samaradorligini ta'minlash, kasbiy talim sifatini oshirish poydevoridir. Zero, kasb- hunar talablari jadal o'zgarib borayotgan paytda , o'quv materiallarining validlik darajasini tekshirishuvi ham doimiy va rad etib bo'lmas jarayon bo'lishi zarur.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun autentik matnlarning validligini tekshirish bo'yicha ilmiy ishlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastlabki nazariy asoslar 1950-1980-yillarda Psixometriyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq, yani Lee Cronbach 1951-yilda "Test validligi" tushunchasini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bevosita ta'limda autentiklik tushunchasini esa Jerome Bruner (1960) "Authentic learning" g'oyasini ilgari surish orqali olib kirdi. Ushbu mavzu yanada 1990- 2000 yillarda shakllandi. Masalan Samuel Messick (1995) - "Validity" tushunchasini 6 jihatga bo'lib tahlil qildi (mazmun, konstrukt, baholash va



boshqalar). Wiggensen esa (1993) - "Authentic Assessment in Vocational Education" asarida real kasbiy matnlardan foydalanishni targ'ib qildi. Va nihoyat, EU Komissiyasi (1999) - "Kasbiy malakalarning Evropada tan olinishi" direktivasi (valid matnlar talabi kuchaydi). 2010 yildan keyin esa ushbu mavzu zamonaviy rivojlanish bosqichini boshdan kechirdi. Bundan tashqari, Global tadqiqotlarning kengayishi: *OECD* (2010) - PIAAC dasturi bilan kognitiv ko'nikmalarni o'lchashda autentik matnlardan foydalanish, Kanening (2013) - "Interpretive Argument" modeli - material validligini 4 bosqichda tekshirish, ETF (2016) - Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun autentik o'quv resurslarini validatsiyalash qo'llanmasi kabi adabiyotlar ham ilm ahli uchun taqdim etildi. Va eng asosiysi 2020-yillardan - AI asosida generatsiya qilingan autentik matnlarning validligi (masalan, ChatGPT tomonidan yaratilgan kasbiy vaziyatlarning haqiqiyliги) yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida rivojlanmoqda. Kichik xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mavzuning ilmiy asoslari 1950-yillarda qo'yilgan, ammo kasbiy ta'lim bilan bog'liq amaliy tadqiqotlar 1990-yillardan faollashgan. O'zbekistonda esa tizimli ishlar 2017-yildan keyin boshlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun qo'llaniladigan autentik matnlarning validlik darajasini baholash muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Xalqaro va O'zbekiston ta'lim tizimida ishlatilayotgan autentik matnlar va ularning validlik darajasini tekshirish usullari tahlili qilindi va ular o'rtasidagi farqlar solishtirildi. Autentik matnlarning validlik darajasini tekshirish yondashuvlari o'rganildi.

Natijalar va ularning tahlili

Kasbiy kompetensiya tushunchasi



Kasbiy kompetensiya — bu muayyan kasb yoki lavozimda samarali va yuqori sifatli ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalar, malakalar, xatti-harakatlar va qobiliyatlar majmuidir. Bu faqat nazariy bilimlarni emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va professional munosabatlarni saqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi.

“Kompetentlik” pedagogik kategoriya sifatida ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishini ko‘zda tutadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, “kompetensiya” mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.¹

¹ G. Djurayeva. (2024). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish.



M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o‘xshash harakatlarni ko‘zda tutadigan “bilim, ko‘nikma va malakalardan” farqli o‘laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. “Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi L.M. Dolgova.

Autentik matnlar va ularning kasbiy mahoratni rivojlantirishdagi o‘rni
Autentik matnlar – bu aynan tilni o‘rgatish maqsadida maxsus yaratilmagan, balki real hayotdagi muayyan auditoriya uchun muayyan maqsadda ishlab chiqarilgan va tarqatilgan har qanday yozma yoki og‘zaki materiallardir. Autentik matnlar uayyan madaniy, ijtimoiy yoki professional muhitda ishlatiladi.

So‘zlashuv yoki yozma tilning tabiiy shakllari, qisqartmalar, idiomalar, jargon, grammatik xatolar (og‘zaki nutqda) mavjud. Ularning asl maqsadi ma’lumot berish, ishontirish, ko‘ngil ochish, yo‘nalish berish, hujjat tuzish kabi haqiqiy kommunikativ maqsaddan iboratdir. Autentik matnlarning muallifi aslida ma’lum bir guruh (masalan, mamlakat aholisi, mutaxassislar, mijozlar) bilan muloqot qilishni maqsad qilgan bo‘ladilar. Ular turli format, mavzu, qiyinlik darajasi, uslub va uzunlikda bo‘lishi mumkin. Quyidagilar Autentik Matnlarning Turlari (Namunalar) hisoblanadi

Matbuot: Gazeta maqolalari, jurnallar, yangiliklar reportajlari, intervyular, sharhlar.

Internet: Blog postlar, forum muhokamalari, ijtimoiy tarmoq xabarlar, veb-saytlar (kompaniya, hukumat, tashkilot), onlayn sharhlar, reklamalar.



Adabiyot: Qisqa hikoyalar, she'rlar, romanlar, pyesalar (lekin adabiy uslub va badiiy ifoda o'ziga xos).

Rasmiy Hujjatlar: Qonunlar, qararlar, shartnomalar, hisobotlar, protokollar, ariza va shikoyatlar, bank hujjatlari, sug'urta polislari. Ko'rsatmalar: Dori vositalari qo'llanmasi, texnika pasporti, retsept, retsept, dasturiy ta'minot foydalanish qo'llanmasi, qurilish sxemalari.

Marketing Materiallari: Reklama broshyuralari, kataloglar, mahsulot tavsiflari, savdo shartlari.

Kundalik Hayot Materiallari: Menyu, yo'l belgilari, chiptalar, kvitansiyalar, xaridlar ro'yxati, SMS xabarlar, elektron pochta (shaxsiy va rasmiy).

Og'zaki Materiallar: Teleko'rsatuvlar, radio dasturlar, podkastlar, haqiqiy suhbatlar (agar yozib olingan bo'lsa), ma'ruzalar, taqdimotlar, ijtimoiy media videolari.

Autentik Matnlar Real Tilni Ta'minlaydi. O'quvchilar tilning qanday ishlatilishini haqiqiy kontekstda ko'radi va o'rganadi. Shuningdek ular motivatsiyani oshiradi, haqiqiy material bilan shug'ullanish o'quvchilarga qiziqarli va mazmunli bo'lib, ularning o'rganish istagini oshiradi. Bundan tashqari autentik matnlar madaniy tushunchani rivojlantiradi yani matn orqali madaniyat, qadriyatlar, munosabatlar va ijtimoiy me'yorlar haqida bilim beradi. Shu afzalliklari uchun ta'lim tizimida autentik matnlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq deb ko'riladi.

Autentik materiallarni KYI yo'riqnomasiga kiritish nafaqat lug'atni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki muayyan professional kontekstda tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. autentik matnlar va hujjatlar bilan muloqot qilish orqali talabalar o'z sohalarida keng tarqalgan konventsional va til naqshlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin, bu ularga professional sharoitlarda yanada samarali va ishonchli muloqot qilish imkonini beradi.



Professional materiallar tilni chuqurroq tushunishni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishining ba'zi asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Til funktsiyalari va nutq namunalari: autentik materiallar o'quvchilarga o'zlarining kasbiy sohalarida keng tarqalgan til funktsiyalari va nutq shakllarini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. autentik matnlar, hujjatlar va aloqa manbalari bilan shug'ullanib, talabalar so'rovlar qilish, ko'rsatmalar berish, ma'lumotlarni taqdim etish yoki professional munozaralarda qatnashish kabi muayyan funktsiyalarni bajarish uchun til qanday ishlatilishini aniqlashlari mumkin.

2. Professional muloqot strategiyalari: autentik materiallar professional kontekstlarda keng tarqalgan aloqa strategiyalari va konventsiyalarini namoyish etadi. O'quvchilar o'z sohasi doirasida mutaxassislarning o'z muloqotlarini qanday tuzayotganini, ishontiruvchi tildan foydalanishini, muzokaralar olib borishini va rasmiy yoki norasmiy nutqda qatnashishini kuzatishi mumkin.

3. Professional yozish uslublarini tushunish: Ko'pgina KYI o'quvchilari kelajakdagi martaba uchun kuchli yozish qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Autentik materiallar professional yozish uslublari, jumladan, hisobotlar, elektron pochta xabarlari, eslatmalar, takliflar va muayyan sohalarda keng qo'llaniladigan boshqa yozma hujjatlarni taqdim etadi. Ushbu materiallarni tahlil qilish orqali talabalar samarali professional yozishni tavsiflovchi til xususiyatlari va tashkiliy naqshlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin [1].

4. Pragmatik tildan foydalanish: autentik materiallar o'quvchilarni professional kontekstlarda tildan foydalanishning pragmatik jihatlari, masalan, xushmuomalalik strategiyalari, bilvosita muloqot va madaniy tildan foydalanishni ochib beradi. autentik materiallar bilan shug'ullanish orqali talabalar o'zlarining kasbiy munosabatlarida xushmuomalalik, qat'iyatlilik yoki hurmatni etkazish uchun



tildan qanday foydalanishni tushunishlari mumkin.

5. Fanlararo til integratsiyasi: Ko'pgina kasbiy sohalarda fanlararo hamkorlik zarur.

Autentik materiallar o'quvchilarga tilning turli fanlar bo'ylab qanday integratsiyalashganligini va turli kelib chiqishi bo'lgan mutaxassislar qanday muloqot qilishlari va samarali hamkorlik qilishlarini tushunishga yordam beradi.²

Autentik matnlarda validlik

Autentik matnlarning validligi deganda quyidagilar tushuniladi

Birinchi o'rinda mazmun validligi hisobga olinadi. Materialdagi bilim, ko'nikma va malakalar haqiqatan ham maqsadli kasbiy standartlarga (masalan, Milliy kasb standartlari, xalqaro malaka ramzalari), ish talablariga to'g'ri kelishligi o'rganiladi. Matnlarning tuzilish validligi, ya'ni material mantiqiy tartibda, bosqichma-bosqich, o'rganuvchining bilim darajasiga mos keladigan tarzda tayyorlanganligi va murakkablik darajasi moslifi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari amaliy validlik (Konstrukt Validlik) - Material berilgan kompetensiyani rivojlantirish uchun haqiqatan ham samarali vosita bo'la olishligi va undagi topshiriqlar va vaziyatlar real ish jarayonlarini aks ettira olishligi ham autentik matnlarning o'qitish jarayoni uchun validlik darajasini belgilaydi. Validlikni tekshirish usullari ham albatta ta'kidlanishi lozim. Validlik ekspertlar tomonidan tekst mazmunning kasbiy kompetensiyani o'qitish yoki rivojlantirish uchun to'g'riligi, yangiligi, amaliy ahamiyati, standartlarga mosligi, murakkablik darajasi kabi omillari tekshiriladi. Ushbu jarayon anketalar, intervyular, "Delphi" usuli, fokus-guruh baholari orqali amalga oshirilishi mumkin. Validlik tekshiruvini tashkil etish bosqichlariga

Tekshiruv maqsadlarini aniq belgilash (qaysi validlik turiga e'tibor beriladi?).

² Altinay Jumabekovna. (2020). Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rganuvchi talabalarining so'z boyligini oshirishda autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati



Tegishli ekspertlar va sinov guruhini tanlash.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish (rubrikalar).

Ma'lumotlarni to'plash (baholar, testlar, kuzatuvlar, intervyular).

Ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Materiallarni validlik natijalariga ko'ra takomillashtirish kabilar kiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetensiyaning autentik matnlar orqali rivojlantirish va autentik materiallarning qanchalik darajada o'quv dasturi uchun mosligini tekshirish bugungi kun ta'lim tizimida yangi, ammo muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu masalaga e'tibor qaratish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki ma'lum jamiyat iqtisodiyoti uchun investitsiya samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altinay Jumabekovna. (2020). Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rganuvchi talabalarining so'z boyligini oshirishda autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati

2.G. Djurayeva. (2024). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish

3.Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials in English lessons.

4.Berardo, S. A. (2006). The use of authentic materials in the teaching of reading

5.<http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet.

6.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi